O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINING MOLIYAVIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI: IPAK YO’LI BANKI MISOLIDA.

Muhammadiyev Kamoliddin G’ulomiddinovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Bank ishi kafedrasi asistenti

Abdullayeva E’zoza Jamshid qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Bank ishi yo’nalishi 424-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi va ularning moliyaviy samaradorlikka ta’siri o‘rganilgan. Xususan, raqamli bank xizmatlari, mobil banking va internet-banking tizimlarining bank faoliyatidagi o‘rni, operatsion xarajatlarni optimallashtirish hamda daromadlarni oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini baholashda sof foyda, aktivlar rentabelligi, kapital rentabelligi va xarajatlarning daromadlarga nisbati kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish masalalariga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, “Ipak Yo‘li” banki misolida raqamli xizmatlarni rivojlantirishning moliyaviy natijalarga ta’sirini baholashga yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, xizmatlar sifatini oshirish va moliyaviy samaradorlikni yaxshilashga qaratilgan takliflar ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli bank xizmatlari, tijorat banklari, raqamli transformatsiya, moliyaviy samaradorlik, mobil banking, internet-banking, bank daromadlari, operatsion xarajatlar, rentabellik, Ipak Yo‘li banki

Annotation: This article examines the development of digital banking services in commercial banks of Uzbekistan and their impact on financial performance. Specifically,

it analyzes the role of digital banking, mobile banking, and internet banking systems in banking operations, focusing on opportunities to optimize operational expenses and boost revenues. The study highlights key metrics used to evaluate the financial efficiency of commercial banks, including net profit, Return on Assets, Return on Equity, and the Cost-to-Income Ratio. Furthermore, it reviews approaches to assessing how digital service expansion affects financial outcomes, using "Ipak Yoli" Bank as a case study. Based on the research findings, proposals are formulated to promote the wide adoption of digital technologies, improve service quality, and enhance overall financial efficiency in commercial banks.

Keywords: digital banking services, commercial banks, digital transformation, financial efficiency, mobile banking, internet banking, banking revenue, operational expenses, profitability, Ipak Yoli Bank.

Kirish: Zamonaviy jamiyat hayotida bank tizimi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Bank sohasining rivojlanishi va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi natijasida moliyaviy xizmatlar ko‘lami hamda ularni amalga oshirish usullari sezilarli darajada o‘zgardi. Xususan, an’anaviy pul muomalasi vositalari — tangalar va banknotlardan tortib, bankomatlar, elektron to‘lovlar hamda kreditlash mexanizmlarigacha bo‘lgan jarayonlar bugungi global bank tizimining rivojlanishida muhim o‘rin egallamoqda.

O‘zbekistonda raqamli bank xizmatlari jadal rivojlanib, tijorat banklari faoliyatida muhim o‘rin egallamoqda. Raqamli kanallar orqali tranzaksiyalar ulushi 2020-yildagi 25%dan 2024-yilda 63%ga yetganligi operatsion samaradorlikni oshirib, xarajatlarni kamaytirmoqd. Shunga qaramay, hududlar kesimida xizmatlar sifati notekisligi va infratuzilma yetishmovchiligi kabi muammolar mavjud . Biroq, O‘zbekiston tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarining moliyaviy samaradorlikka bevosita ta’sirini kompleks va tizimli tahlil qilish yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarining moliyaviy samaradorlikka ta’sirini tahlil qilish hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili: Ushbu mavzuni ilmiy jihatdan yoritishda bank tizimining rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning moliyaviy xizmatlarga tatbiq etilishi hamda ularning tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta’sirini o‘rgangan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston bank tizimi uchun ham mazkur yo‘nalish dolzarb hisoblanadi.

Sardor Kholdorov va Iskandar Yuldoshevning 2025-yildagi tadqiqotida tijorat banklari faoliyatining raqamli texnologiyalar asosida transformatsiyalanishi operatsion samaradorlik va moliyaviy natijalar bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Mualliflar banklar faoliyatini baholashda aktivlar rentabelligi va xarajatlarning daromadlarga nisbati kabi ko‘rsatkichlardan foydalanishga e’tibor qaratganlar.

Bundan tashqari, Bazel bank nazorati qo‘mitasining 2024-yilda e’lon qilingan moliya sohasini raqamlashtirishga bag‘ishlangan hisobotida yangi texnologiyalarning bank xizmatlariga ta’siri, ular yaratadigan imkoniyatlar va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan operatsion hamda texnologik xatarlar yoritilgan[1]. Shu sababli mazkur tadqiqotda O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatida raqamli xizmatlarning moliyaviy natijalarga ta’sirini o‘rganish, xususan, Ipak Yo‘li bank misolida raqamli xizmatlar rivojlanishi va bankning moliyaviy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot metadalogiyasi: Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarining moliyaviy samaradorlikka ta’sirini aniqlash maqsadida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil va moliyaviy ko‘rsatkichlarni baholash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston tijorat banklari faoliyati, xususan, “Ipak Yo‘li” aksiyadorlik innovatsiya tijorat bankining raqamli xizmatlari va moliyaviy natijalari tanlab olindi.Tadqiqot jarayonida bankning 2023–2025-yillardagi moliyaviy hisobotlari hamda rasmiy axborot manbalarida keltirilgan ma’lumotlar asosiy

[1] https://www.bis.org/bcbs/

axborot bazasi sifatida belgilandi. Raqamli bank xizmatlarining rivojlanish darajasi mobil banking, internet-banking, masofaviy bank operatsiyalari va elektron to‘lov xizmatlari orqali baholandi.

Tahlil va natijalar: Bankning moliyaviy samaradorligini baholashda sof foyda, daromadlar, xarajatlar, aktivlar rentabelligi, kapital rentabelligi va xarajatlarning daromadlarga nisbati ko‘rsatkichlaridan foydalanildi. Shuningdek, ushbu ko‘rsatkichlarning yillar davomida o‘zgarishi taqqoslanib, raqamli xizmatlar rivojlanishi bilan bankning moliyaviy natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi.

Ko’rsatkichlar	2023	2024	2025
Jami aktivlar	16 914,3	23 185,9	28 273,2
Kredit portfeli	11 535,3	14 184,2	16 052,7
Mijozlar depozitlari	8 085,5	11 871,4	14 734,1
Foizli daromadlar	2 093,0	3 068,3	3 634,2
Sof foizli daromadlar	1 166,8	1 558,3	1 890,5
Soliq to’langunga qadar foyda	873,1	1 046,7	973,3
Sof foyda	731,3	886,9	886.3

Bank aktivlari. 2023-yilda bankning jami aktivlari 16 914,3 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 23 185,9 mlrd so‘mga yetgan. Bu 37,1 foizlik o‘sishni anglatadi. 2025-yilda esa aktivlar 28 273,2 mlrd so‘mga yetib, oldingi yilga nisbatan 21,9 foizga oshgan. Mazkur holat bank faoliyati ko‘lami kengayib, moliyaviy resurslar hajmi ortib borayotganini ko‘rsatadi.[2]

[2] https://www.bis.org/bcbs/

Kredit portfeli. Kredit portfeli 2023-yildagi 11 535,3 mlrd so‘mdan 2024-yilda 14 184,2 mlrd so‘mga, 2025-yilda esa 16 052,7 mlrd so‘mga yetgan. Kreditlash hajmining izchil o‘sishi bankning iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirishdagi ishtiroki kengayganidan dalolat beradi.

Foizli daromadlar. Bankning foizli daromadlari 2023-yilda 2 093 mlrd so‘mni tashkil qilgan. 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 3 068,3 mlrd so‘mga, 2025-yilda esa 3 634,2 mlrd so‘mga ko‘tarilgan. Bu bankning kreditlash va boshqa foiz keltiruvchi aktivlaridan olinadigan daromadlari oshganini anglatadi.

Sof foyda. 2023-yilda sof foyda 731,3 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 886,9 mlrd so‘mga yetgan. 2025-yilda esa 886,3 mlrd so‘mni tashkil qilib, deyarli o‘zgarishsiz qolgan. Bunda e’tiborli jihat shundaki, bank aktivlari va foizli daromadlari o‘sishda davom etgan bo‘lsa-da, sof foyda o‘sishi to‘xtagan. Bundan bank xarajatlari, kredit yo‘qotishlari bo‘yicha zaxiralar va boshqa moliyaviy omillarni chuqurroq o‘rganish zarurligi kelib chiqadi.

Xulosa: Olib borilgan tadqiqotlar natijasida zamonaviy bank tizimining rivojlanishida innovatsion texnologiyalar va raqamli xizmatlarning o‘rni tobora ortib borayotgani aniqlandi. Bugungi kunda banklar faoliyatini samarali tashkil etish, moliyaviy operatsiyalarni tezkor amalga oshirish, mijozlarga qulay xizmat ko‘rsatish hamda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishda raqamli texnologiyalar muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot davomida Ipak Yo‘li bankning 2023–2025-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ushbu davrda bankning jami aktivlari, kredit portfeli, mijozlar depozitlari va foizli daromadlarida ijobiy o‘sish kuzatilgan. Xususan, jami aktivlarning 2023-yildagi 16 914,3 mlrd so‘mdan 2025-yilda 28 273,2 mlrd so‘mga yetishi bank faoliyati ko‘lami kengayganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, sof foyda 2024-yilda 886,9 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda 886,3 mlrd so‘mga

teng bo‘lgan. Bu esa daromadlar o‘sishi bilan bir qatorda xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, tijorat banklari faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish – mobil ilovalar, internet-banking va masofaviy xizmatlar imkoniyatlarini kengaytirish orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish.

2. Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish – moliyaviy operatsiyalarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida aks ettirish, daromad va xarajatlar hisobining shaffofligini ta’minlash.

3. Operatsion xarajatlarni optimallashtirish – bank faoliyatida ortiqcha xarajatlarni kamaytirish, avtomatlashtirilgan hisob tizimlarini keng joriy etish va mavjud resurslardan samarali foydalanish.

4. Kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish – kredit portfeli sifatini muntazam baholash, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va ehtimoliy yo‘qotishlar uchun zaxiralarni to‘g‘ri shakllantirish.

5. Moliyaviy tahlil tizimini kuchaytirish – bank daromadlari, xarajatlari va sof foydasini muntazam tahlil qilish orqali boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish.

Umuman olganda, tijorat banklari faoliyatida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va moliyaviy natijalarni samarali boshqarish banklarning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishlarning izchil rivojlantirilishi nafaqat banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi, balki mamlakat bank tizimining xalqaro moliya bozoridagi mavqeini oshirishga ham zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kholdorov S., Yuldoshev I. Econometric Analysis of Assessing the Impact of Bank Activity Transformation on Operational Efficiency in the Context of Digital Technologies // Journal of International Economics Research. – 2025

2. Basel Committee on Banking Supervision. Digitalisation of Finance. Bank for International Settlements, 2024. – Rasmiy sayt: https://www.bis.org/bcbs/

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi faoliyati ko‘rsatkichlari va statistik ma’lumotlar. – Rasmiy sayt: https://cbu.uz/uz/statistics/.

4. Ipak Yo‘li” aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki. 2023–2025-yillar yillik va moliyaviy hisobotlari. – https://ipakyulibank.uz

5. IFRS Foundation. International Financial Reporting Standards (IFRS 9 – Financial Instruments). – https://www.ifrs.org/

6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi statistikasi va yillik hisobotlari. – https://cbu.uz/uz/